

e-mail: info@uzairways.com
tel: +998 (78) 140-46-23
fax: +998 (71) 236-75-00



UZBEKISTAN
airways

www.uzairways.com

Aksiyadorlik jamiyati | Joint-Stock Company

2025 y. «27». 01 № 73/33

O'zbekiston Respublikasi "Uzbekistan Airways" tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlari to'g'risida

TARTIB

Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 829-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib "Uzbekistan Airways" tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, uning sabablari va bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faol ishtirokini ta'minlash hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish va ta'qib qilinmasligi kafolatlarini belgilaydi.

II. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish va unga qarshi kurashish

2. "Uzbekistan Airways" xodimi (bundan buyon matnda xodim deb yuritiladi) qonun xujjatlariga rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'araz, xolisona, vijdonan, odob-ahloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarlikni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shart.

3. Rahbar xodimlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish uchun quyidagi choralarni ko'rishlari lozim:

"Uzbekistan Airways" faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion xavf-xatarlari inobatga olingan holda;

“Uzbekistan Airways” faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, shuningdek xaridlarni o'tkazilishi hamda kadrlar bilan ishlash yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratish;

qo'l ostidagi xodimlarga korrupsiya holatlarini aniqlashda shaxsan o'rnak bo'lishi hamda xodimlarda korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

qo'l ostidagi xodimiga rahnamolik (asossiz rag'batlantirish va lavozimni ko'tarish), shuningdek, nojo'ya ishlariga beparvolik (faoliyatdagi kamchiliklar uchun chora ko'rmaslik, huquqqa zid harakatlariga e'tibor bermaslik) holatlariga yo'l quymaslik;

Rahbarlik qilayotgan tarkibiy bo'linma faoliyatini tizimli tahlil qilib, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va shart-sharoitlarni bartaraf etishning ta'sirchan choralarini ko'rib borish.

III. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari to'g'risidagi xabar berish

4. Xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash maqsadida murojaat qilinganligi haqida to'g'ridan-to'g'ri komplayens-nazorat faoliyatini amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linma orqali “Uzbekistan Airways” raisi nomiga hamda vakolatli huquqni muxofaza qiluvchi organlarga yozma ravishda xabar beriladi.

5. Xodimlarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash bo'yicha barcha mavjud materiallar o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi.

6. Xodimlarning ogohlantirishiga qaramasdan, pul yoki boshqa moddiy boyliklar qonunga xilof ravishda uning xizmat xonasida yoki boshqa joyda qoldirib ketilsa, ma'sul shaxslar (qo'riqlash yoki navbatchilik qismi xodimlari) va boshqa shaxslar ishtirokida dalolatnoma tuziladi. Ushbu dalolatnoma darhol rahbariyatga hamda vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etiladi.

IV. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rahbatlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlari

7. Xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtirokini rahbatlantirishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

“Uzbekistan Airways” tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish va unga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablari va bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida rahbariyatga asosli taklif va tashabbuslarini taqdim etgan, shuningdek, mazkur sohani takomillashtirishga hissa qo'shgan xodimlarni rag'batlantirish;

Xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish.

8. Xodimlar korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida murojaat etib, huquqbuzarliklar (jinoyat)ning oldini olish, to'xtatish va uni to'liq fosh etishda faol ishtirok etganligi uchun, komplayens-nazorat faoliyatini amalga oshiruvchi xizmat tomonidan "Uzbekistan Airways" raisi nomiga kiritilgan bildirishnoma asosida rag'batlantiriladi.

Xodimlarni rag'batlantirish "Uzbekistan Airways" raisi vakolati doirasida bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida belgilanadi.

Rag'batlantirish masalasi korruptsiyaga oid huquqbuzarlik bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki ma'muriy ishlar bo'yicha sudning qarori qonuniy kuchga kirgandan so'ng ko'rib chiqiladi.

Murojaatchining ta'qib qilinmasligi – korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, zulm o'tkazish, ta'qib qilish singari harakatlariga yo'l qo'yilmasligi hamda ular haqida ma'lumotlar sir saqlanishi kafolatlanadi.

9. Quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lgan taqdirda xodimlar rag'batlantirilishi mumkin:

Xodimlarga nisbatan qasddan sodir etilishi rajalashtirilayotgan korruptsiyaga oid huquqbuzarlikning oldi olinishi yoki to'xtatilishi;

Tayyorgarlik ko'rilayotgan korruptsiyaga oid yoki boshqa huquqbuzarliklar haqida xabar berish natijasida jinoyat fosh etilishi;

Jinoyatni to'xtatish va uni to'liq fosh etishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga faol ko'maklashishi;

Aholi o'rtasida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida targ'ibot va profilaktik tadbirlarda faol ishtirok etish;

Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida rahbariyatga taklif va tashabbuslarning taqdim etilishi, shuningdek, ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi.

10. Xodimni rag'batlantirish, yuqori lavozimlarga yoki davlat mukofotlariga tavsiya qilishda uning korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kurashda faol ishtirok ham inobatga olinadi.

V. Yakuniy qoidalar

11. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

12. Ushbu tartibni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Qonuni oldida javobgar bo'ladi.

**Korruptsiyaga qarshi kurashish
va komplaens xizmati boshlig'i**



A.A. Abduvaxabov